



O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTIGA JALB QILINGAN TO‘G‘RIDAN-TO‘G‘RI XORIJIY INVESTITSIYALARNING HOZIRGI HOLATI VA ULARNING IQTISODIY O‘SISHGA TA‘SIRINI BAHOLASH

Baxridinov Jahonbek Azimjon o‘g‘li

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

Iqtisodiyot ta‘lim yo‘nalishi

1-bosqich magistranti

jahonbekbaxriddinov@gmail.com

Аннотация: Mazkur maqolada O‘zbekiston iqtisodiyotiga jalb qilinayotgan to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarning hozirgi holati tahlil qilinadi hamda ularning mamlakat iqtisodiy o‘shishiga ta‘siri baholanadi. Tadqiqot davomida investitsion jarayonlarning asosiy yo‘nalishlari, tarmoqlar kesimidagi taqsimoti va so‘nggi yillardagi dinamikasi o‘rganilgan. Shuningdek, xorijiy investitsiyalarni jalb etishga ta‘sir etuvchi omillar, mavjud muammolar va ularni bartaraf etish yo‘llari ko‘rib chiqilgan. Natijada, to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarning real sektorni rivojlantirish, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish hamda eksport salohiyatini kengaytirishdagi o‘rni asoslab berilgan.

Калит so‘zlar: to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar, investitsion muhit, iqtisodiy o‘shish, real sektor, xorijiy kapital, investitsiya oqimi, makroiqtisodiy barqarorlik, iqtisodiy rivojlanish, investitsiya siyosati, eksport salohiyati

Аннотация: В данной статье анализируется текущее состояние привлечения прямых иностранных инвестиций в экономику Узбекистана, а также оценивается их влияние на экономический рост страны. В ходе исследования изучены основные направления инвестиционных процессов, их отраслевое распределение и динамика за последние годы. Кроме того, рассмотрены факторы, влияющие на привлечение иностранных инвестиций,



существующие проблемы и пути их решения. В результате обоснована роль прямых иностранных инвестиций в развитии реального сектора, повышении эффективности производства и расширении экспортного потенциала.

Ключевые слова: прямые иностранные инвестиции, инвестиционная среда, экономический рост, реальный сектор, иностранный капитал, инвестиционные потоки, макроэкономическая стабильность, экономическое развитие, инвестиционная политика, экспортный потенциал

Abstract: This article analyzes the current state of attracting foreign direct investments into the economy of Uzbekistan and evaluates their impact on the country's economic growth. The study examines the main directions of investment processes, their sectoral distribution, and recent trends. It also considers the factors influencing the attraction of foreign investments, existing challenges, and possible solutions. As a result, the role of foreign direct investment in developing the real sector, increasing production efficiency, and expanding export potential is substantiated.

Keywords: foreign direct investment, investment climate, economic growth, real sector, foreign capital, investment flows, macroeconomic stability, economic development, investment policy, export potential

To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar (TTXI) xalqaro kapital harakatining bir qismi sifatida mamlakatlarning iqtisodiy rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Jahon mamlakatlarida barqaror iqtisodiy o'sish sur'atlarini ta'minlash, yuqori qo'shilgan qiymatli raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarish, korxonalarni texnologik yangilash, yangi ish o'rinlarini yaratishda TTXIning jalb qilish va ulardan samarali foydalanish muhim ahamiyat kasb etmoqda. So'ngi yillarda mamlakatimizda barqaror iqtisodiy o'sish sur'atlarini ta'minlash, hududlarni faol ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishda TTXIga muhim vosita sifatida qaralmoqda.

2017-yildan buyon O'zbekistonda xorijiy investitsiyalarni jalb qilishni jadallashtirish va buning uchun qulay shart-sharoit yaratishga qaratilgan 20 dan ortiq



yirik chora-tadbirlar amalga oshirildi. Jumladan, yangi tahrirdagi “Investitsiya va investitsiya faoliyati to‘g‘risida”gi, “Maxsus iqtisodiy zonalar to‘g‘risida”gi qonunlar qabul qilindi hamda valyuta operatsiyalari bo‘yicha yangi qoidalar amaliyotga joriy etildi.

Investorlarning faoliyatini kengaytirish va mavjud imkoniyatlardan samarali foydalanishga qaratilgan siyosat natijasida, 2024-yilning 1-iyul holatiga ko‘ra, Respublikada jami 24 ta maxsus iqtisodiy zona, 400 ta kichik sanoat zonasi, 22 ta texnopark hamda 398 ta klasterlar faoliyat yuritmoqda¹.

Investitsiya faoliyatini, jumladan xorijiy investitsiyalarni qo‘llabquvvatlash, iqtisodiyotning investitsiyaviy jozibadorligini oshirish hamda islohotlarni jadal davom ettirish maqsadida “O‘zbekiston – 2030” strategiyasida bir qator chora-tadbirlar belgilangan². Jumladan, 2030-yilga qadar mamlakat iqtisodiyotiga 250 milliard dollarlik investitsiyalarni o‘zlashtirish, jumladan 110 milliard dollar xorijiy investitsiyalar va 30 milliard dollar davlat-xususiy sheriklik doirasidagi investitsiyalarni jalb qilish, asosiy kapitalga kiritiladigan investitsiyalar hajmining yillik o‘rtacha 7 foiz atrofida o‘shirishni ta’minlash hamda hududlarning investitsion reytingini yuritish, har bir hududning imkoniyatlaridan kelib chiqib, uning investorlar uchun jozibadorligini yanada oshirish vazifalari belgilangan.

Ijobiy islohotlarga qaramasdan investitsion qulay muhitni yaratish bo‘yicha hukumat e’tibori berishi zarur bo‘lgan yo‘nalishlar saqlanib qolgan. Xususan, xorijiy investorlar uchun muhim bo‘lgan institutsional muhitni yaxshilash bo‘yicha muhim vazifalar turibdi. Qonun ustuvorligi va mulk huquqi TTXI oqimiga ta’sir ko‘rsatishda hal qiluvchi omil bo‘lib, investitsion muhitni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi³. Jahon Bankining “Worldwide Governance Indicators” ning

¹ <https://www.toshvilstat.uz/uz/matbuot-markazi/qo-mita-yangiliklar/14986-nashr-1488>.

² O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi “O‘zbekiston — 2030” strategiyasito‘g‘risida”gi PF-158-sonli farmoni, <https://lex.uz/ru/docs/-6600413>.

³ Knack, S., & Keefer, P. (1995). Institutions and economic performance: Cross-country tests using alternative institutional measures. *Economics & Politics*, 7(3), 207-227.



investorlar uchun eng muhim bo‘lgan ko‘rsatkich qonun ustuvorligi indeksi 5 yil ichida yaxshilanish kuzatilgan bo‘lishidan qat’iy nazar, hamon 78,3 foiz mamlakatlarga qaraganda qonun ustuvorligi past hisoblanadi⁴.

Quyida so‘ngi yillarda milliy iqtisodiyotga jalb qilingan TTXIning umumiy hamda asosiy iqtisodiy faoliyat turlari, geografik konsentratsiyasi va hududlar kesimida tahlili bilan tanishib chiqamiz.

2025 yil yanvar–dekabr oylarida iqtisodiyot va ijtimoiy sohani rivojlantirish uchun barcha moliyalashtirish manbalari hisobidan 591,1 trln so‘m asosiy kapitalga investitsiyalar o‘zlashtirildi. Bu ko‘rsatkich 2024 yilga nisbatan 10,5 foizga oshgan. Milliy statistika qo‘mitasi qayd etishicha, 2025 yilda asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmi 591,1 trln so‘mni tashkil etdi. Mazkur o‘shish iqtisodiyot va ijtimoiy sohadagi yangi loyihalar hamda infratuzilma yo‘nalishlaridagi ishlar faolligi bilan izohlanadi. Shu davrda yangi asosiy fondlarni yaratishga qaratilgan asosiy kapitalga xorijiy investitsiya va kreditlar hajmi 33,5 mlrd AQSh dollari yoki 422,1 trln so‘m bo‘lgan. Bu, umumiy investitsiyalar hajmiga nisbatan, taxminan 71,4 foiz ulushni tashkil etadi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha asosiy kapitalga xorijiy investitsiya va kreditlar taqsimoti quyidagicha:

- ishlab chiqarish sanoati — 33,2 foiz;
- elektr, gaz bilan ta’minlash — 17,1 foiz;
- tog‘-kon sanoati — 11,9 foiz;
- qishloq xo‘jaligi — 9,2 foiz;
- qurilish — 6,1 foiz;
- tashish va saqlash — 5,3 foiz;
- suv bilan ta’minlash va kanalizatsiya — 2,1 foiz;

⁴ Daniel Kaufmann and Aart Kraay (2023). Worldwide Governance Indicators, 2023 Update (www.govindicators.org), Accessed on 10/19/2023.



- sogʻliqni saqlash — 1,7 foiz;
- axborot va aloqa — 1,5 foiz;
- boshqa faoliyat turlari — 11,9 foiz.

2025-yil davomida Oʻzbekiston iqtisodiyotiga yoʻnaltirilgan investitsiyalar hajmi 591,1 trln soʻmni tashkil etdi. Bu koʻrsatkich soʻnggi besh yil ichida deyarli 1,8 barobarga oshganini koʻrsatadi. Shu bilan birga, xorijiy investitsiyalar ulushi rekord darajadagi 47,5 foizga koʻtarildi.

Oʻzbekiston Respublikasi Milliy statistika qoʻmitasi maʼlumotlariga koʻra, 2025-yilning yanvar-dekabr oylarida mamlakat iqtisodiyoti va ijtimoiy sohasini rivojlantirish uchun 591,1 trln soʻm miqdoridagi asosiy kapitalga investitsiyalar oʻzlashtirildi. Bu 2024-yilga nisbatan 10,5 foizga koʻpdir.

Besh yillik dinamika barqaror oʻsishni namoyish etmoqda: investitsiyalar hajmi 2021-yildagi 236,6 trln soʻmdan 2025-yilda 591,1 trln soʻmga yetdi — oʻsish 1,8 barobar. Eng yuqori oʻsish surʼatlari 2024-yilda (131,3%) qayd etilgan boʻlsa, 2025-yil bir oz moʻtadilroq, ammo barqaror 110,5 foizli oʻsishni koʻrsatdi.

2025-yilda moliyalashtirish manbalari tarkibi markazlashmagan investitsiyalarning ustunligi bilan xarakterlanadi:

Markazlashgan investitsiyalar 62,6 trln soʻmni (umumiy hajmning 10,6 foizi) tashkil etib, 13,6 foizga oshdi:

- Budjet mablagʻlari: 28,0 trln soʻm (4,7%)
- Tiklanish va taraqqiyot jamgʻarmasi mablagʻlari: 2,1 trln soʻm (0,4%)
- Davlat kafolati ostidagi xorijiy kreditlar: 32,5 trln soʻm (5,5%)

Markazlashmagan investitsiyalar 528,5 trln soʻmga (89,4%) yetib, 10,2 foizga koʻpaydi:

- Xorijiy investitsiyalar va kafolatlanmagan kreditlar: 389,6 trln soʻm (65,9%)
- Korxonalarining oʻz mablagʻlari: 90,3 trln soʻm (15,3%)
- Aholi mablagʻlari: 37,5 trln soʻm (6,3%)
- Tijorat banklari kreditlari: 11,1 trln soʻm (1,9%)



E'tiborli jihati shundaki, so'nggi besh yil ichida markazlashmagan investitsiyalar ulushi 2021-yildagi 80,8 foizdan 2025-yilda 89,4 foizga ko'tarildi. Bu investitsiya jarayonlarida xususiy sektorning roli kuchayib borayotganidan dalolat beradi.

Xorijiy investitsiyalar dinamikasi ayniqsa hayratlanarli bo'ldi. 2025-yilda o'zlashtirilgan jami xorijiy investitsiyalar va kreditlar hajmi 33,5 mlrd AQSH dollarini (422,1 trln so'm) tashkil etdi:

- Xorijiy investitsiyalar: 281,1 trln so'm (22,4 mlrd dollar), o'sish 146,9% — bu eng yuqori o'sish ko'rsatkichidir.
- Kafolat ostidagi xorijiy kreditlar: 32,5 trln so'm (2,6 mlrd dollar), o'sish 127,2%.
- Kafolatlanmagan xorijiy kreditlar: 108,5 trln so'm (8,6 mlrd dollar), o'sish 113,2%.

Jami hajmdagi xorijiy investitsiyalar ulushi 2024-yildagi 36,0 foizdan 2025-yilda 47,5 foizga yetdi, bu esa O'zbekiston iqtisodiyotining xalqaro investorlar uchun jozibadorligi ortib borayotganini tasdiqlaydi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha investitsiyalarning taqsimlanishi diversifikatsiyalashgan yondashuvni ko'rsatadi:

Investitsiya hajmi bo'yicha TOP-5 tarmoq:

1. Qayta ishlash sanoati — 160,5 trln so'm (27,2%)
2. Elektr, gaz va bug' bilan ta'minlash — 78,3 trln so'm (13,3%)
3. Tog'-kon sanoati — 58,8 trln so'm (9,9%)
4. Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi — 51,2 trln so'm (8,7%)
5. Uy-joy qurilishi — 46,6 trln so'm (7,9%)

Xorijiy investitsiyalar tarkibida yetakchilar:

- Qayta ishlash sanoati (33,2%)
- Elektr va gaz ta'minoti (17,1%)
- Tog'-kon sanoati (11,9%)
- Qishloq xo'jaligi (9,2%)



Investitsiyalarni jalb qilish hajmi bo'yicha yetakchilar:

- Toshkent shahri — 105,7 trln so'm
- Toshkent viloyati — 79,4 trln so'm
- Namangan viloyati — 61,1 trln so'm
- Navoiy viloyati — 43,1 trln so'm
- Buxoro viloyati — 42,9 trln so'm

Xorijiy investitsiyalar ulushi bo'yicha ajralib turuvchi hududlar:

- Namangan viloyati (82,3%)
- Navoiy viloyati (82,0%)
- Andijon viloyati (77,7%)
- Buxoro viloyati (76,9%)

Ijtimoiy sohadagi investitsiyalar ham ijobiy dinamikani ko'rsatdi:

Uy-joy qurilishi:

- 15 908,8 ming kv. m uy-joy foydalanishga topshirildi (o'sish 2,8%).
- Qishloq joylarda — 10 538,1 ming kv. m (jami hajmning 66,2 foizi).

Muhandislik infratuzilmasi:

- **Suv quvurlari tarmoqlari:** 925,1 km, shundan qishloq joylarda — 745 km (80,5%).
- **Gaz quvurlari tarmoqlari:** 17,9 km, shundan qishloq joylarda — 9,8 km.

Uy-joyni foydalanishga topshirish bo'yicha yetakchilar:

- Toshkent viloyati — 1 997,7 ming kv. m
- Xorazm viloyati — 1 769,7 ming kv. m
- Farg'ona viloyati — 1 630,8 ming kv. m
- Namangan viloyati — 1 533,2 ming kv. m
- Buxoro viloyati — 1 518,6 ming kv. m

O'zbekistonning 2025-yildagi investitsiya ko'rsatkichlari quyidagilarni namoyish etadi:



- **Barqaror o'sish** — investitsiyalar hajmi besh yil ichida deyarli ikki barobar oshdi.
- **Xorijiy kapitalning rekord darajadagi oqimi** — xorijiy investitsiyalar 146,9 foizga o'sib, ularning ulushi 47,5 foizga yetdi.
- **Iqtisodiyotning diversifikatsiyasi** — investitsiyalar ham an'anaviy, ham yangi tarmoqlarga yo'naltirilmoqda.
- **Xususiy sektor ustunligi** — investitsiyalarning 89,4 foizi markazlashmagan manbalar hissasiga to'g'ri kelmoqda.
- **Muvozanatli hududiy rivojlanish** — barcha hududlar investitsiyalarni faol jalb qilayotganini ko'rsatmoqda.
- **Ijtimoiy infratuzilma rivoji** — ayniqsa, qishloq joylarda uy-joy va muhandislik infratuzilmasi qurilishi davom etmoqda.

Ushbu ko'rsatkichlar O'zbekistondagi investitsiya muhitining jozibadorligi ortib borayotganidan va uzoq muddatli iqtisodiy o'sish uchun qulay sharoitlar yaratilganidan dalolat beradi.

Manba: *O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi*

Ahamiyatli jihati, xorijiy mablag'lar asosan ishlab chiqarish sanoati hamda energetika (elektr va gaz ta'minoti) yo'nalishlariga to'g'ri kelmoqda.

Shuningdek, mazkur davrda elektr energiyasini ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash faoliyatida ham yuqori TTXI oqimi kuzatilgan. Qurilish, ulgurji va chakana savdo (motorli transport vositalari va motosikllarni ta'mirlash), axborot va aloqa, ko'chmas mulk bilan operatsiyalar, professional, ilmiy va texnik faoliyat, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish tarmoqlariga TTXI hajmi barqaror o'sib kelmoqda. Biroq, iqtisodiy rivojlanishda muhim hisoblangan ta'lim, boshqarish bo'yicha faoliyat va yordamchi xizmatlar ko'rsatish, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar, tashish va saqlash, suv bilan ta'minlash hamda moliyaviy va sug'urta faoliyati sohalarida sezilarli o'zgarishlar kuzatilmagan.



Shu bilan birga, eksport salohiyati yuqori bo‘lgan — mashinasozlik, elektrotexnika, metallurgiya, kimyo va farmatsevtika tarmoqlarida asosiy kapitalni shakllantirish uchun TTXIning darajasi pastligicha qolmoqda.

Mazkur tendensiya ushbu sohalarda qulay investitsiya muhiti yaratilmaganligi, xususan raqobat muhiti, xususiy mulk daxlsizligi, moliya bozorlari, ishlab chiqarish va bozor infratuzilmasida tizimli muammolarning mavjudligidan dalolat beradi.

Shuningdek, TTXIning yuqori texnologiyali va inson kapitaliga faol yo‘naltirilmasligi mamlakatda yuqori darajadagi inklyuziv o‘shishga erishish va kambag‘allik darajasini qisqartirish kabi maqsadlarga erishish jarayonini xavf ostiga qo‘yishi mumkin.

O‘zbekistonda 2025-yilning yanvar-sentabrida asosiy kapitalga 443,6 trln so‘mlik investitsiyalar o‘zlashtirildi — o‘tgan yil shu davridan 15,2% ko‘p. O‘shish sur‘ati birinchi yarimyillikdagidan uch karra yuqori bo‘lgan bo‘lsa-da, ko‘rsatkich deyarli 39% oshgan o‘tgan yildagidan sezilarli darajada past.

O‘zbekistonda asosiy kapitalga investitsiyalar qariyb 39 foizga oshgan faol 2024-yildan so‘ng, 2025-yil o‘rtacha o‘shish trayektoriyasiga qaytilayotganini ko‘rsatmoqda. Bu Milliy statistika qo‘mitasi ma'lumotlaridan kelib chiqadi.

To‘qqiz oy yakunlariga ko‘ra, 443,6 trln so‘m — o‘tgan yilga nisbatan 15,2% ko‘p mablag‘ sarflandi. Birinchi to‘qqiz oylik ma‘lumotlar shuni ko‘rsatadiki, mo‘tadil budjet siyosati fonida hozirgi tendensiya barqaror ko‘rinadi.




1-rasm. Asosiy kapitalga investitsiyalar dinamikasi.



E'tiborlisi, yil o'rtalariga kelib, o'sish sur'ati sezilarli darajada kamtarroq bo'ldi — atigi +5,5%. Raqamlar uchinchi chorakda investitsion faollik, birinchi navbatda, xususiy va xorijiy kapital hisobiga oshganini ko'rsatmoqda.

Markazlashtirilgan manbalar (davlat budjeti va davlat dasturlari) mablag'lari hajmi 11,9% o'sib, 43,4 trln so'mga yetdi. Biroq ularning umumiy budjetdagi ulushi biroz pasaydi — 10,1% dan 9,7% ga. Mutaxassislarning fikricha, rasmiylar muvozanatni saqlashga harakat qilmoqda: budjet yukini oshirmasdan infratuzilma loyihalarini qo'llab-quvvatlamoda.



2-rasm. Yillar bo'yicha markazlashgan va markazlashmagan moliyalashtirilmagan manbalari hisobidan asosiy kapitalga investitsiyalar ulushi

Markazlashtirilmagan manbalar — korporativ mablag'lar, bank kreditlari va to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar asosiy omil bo'lib qolmoqda. Ular 15,6% o'sib, 400,2 trln so'mga yetdi, biroq birinchi olti oyda o'sish atigi 6,6% ni tashkil etdi.

Ishlab chiqarish sanoati eng ko'p investitsiya jalb qilishda davom etmoqda — barcha investitsiyalar hajmining 27,3 foizi. Soha ulushi o'tgan yilga nisbatan birmuncha pasaygan bo'lsa-da, mashinasozlik va kimyo sanoatida kapital qo'yilmalarga talab kuchliligicha qolmoqda.


Boshqa tomondan, tog'-kon sanoati ulushi kamayib bormoqda — 13,2% dan 9,9% gacha. Bu bir nechta yirik loyihalarning yakunlanishi va xomashyoni qayta



ishlashga o'tish bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Energiya ta'minoti va gaz taqsimoti barcha investitsiyalarning taxminan 14% ini tashkil qiladi.

Qishloq xo'jaligi sezilarli darajada tiklanishni ko'rsatmoqda: investitsiyalar ulushi deyarli ikki baravar oshib, 8,8% ni tashkil etdi. Qayta ishlashni modernizatsiya qilish va suv tejavchi texnologiyalarni joriy etish tufayli tarmoq asta-sekin yangi rivojlanish sohasiga aylanib bormoqda. Uy-joy qurilishi ham 5,2% dan 7,2% ga oshdi.

Yilning to'qqiz oyida mamlakatga 34,5 mlrd dollarlik xorijiy investitsiyalar va kreditlar kelib tushdi, shundan 24,9 mlrd dollari asosiy kapitalga yo'naltirildi. Ayniqsa to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar tez sur'atlar bilan o'smoqda — ularning hajmi 1,5 baravar — 14,4 mlrd dollargacha oshdi. Tahlilchilar buni investorlarning mamlakat iqtisodiyotiga bo'lgan ishonchi ko'rsatkichi sifatida baholamoqda.



3-rasm. O'zbekiston Respublikasida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha asosiy kapitalga xorijiy kapitalga xorijiy investitsiya va kreditlar

Davlat kafolati ostidagi kreditlar ulushi 5% darajasida qolmoqda, biroq ularning hajmi ham oshdi — 22,6%. Iqtisodchilarning fikricha, rasmiylar tashqi mablag'larni jalb qilish sur'atini saqlab qolgan holda qarz yukini nazorat ostida ushlab turishga harakat qilmoqda.



Shu tariqa 2025-yil investitsiya sektori uchun poyga emas, balki tarkibiy qayta qurish davriga aylandi. Davlat investitsiyalari ulushi kamayib, xususiy va xorijiy manbalar ortib bormoqda, ustuvorlik yuqori qo‘shilgan qiymatga ega bo‘lgan sanoat va infratuzilma va ijtimoiy loyihalarga qaratilmoqda.

Xulosa qilib aytganda, so‘nggi yillarda O‘zbekiston iqtisodiyotiga xorijiy investitsiyalarni jalb qilishni jadallashtirish, buning uchun qulay shart-sharoit yaratish hamda mamlakatning investitsion jozibadorligini oshirish bo‘yicha salmoqli ishlar amalga oshirildi. Shunga qaramasdan, xorijiy investorlar uchun muhim bo‘lgan institutsional muhitni yaxshilash bo‘yicha muhim vazifalar turibdi. So‘nggi yillar tendiyasiga ko‘ra, to‘qimachilik mahsulotlari ishlabchiqarish, kimyo mahsulotlari ishlabchiqarish, boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish, metallurgiya sanoatlari ishlab chiqaradigan tarmoqlar sanoatning eng jozibador sohalari bo‘lgan. Shuningdek, mazkur davrda elektr energiyasini ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash faoliyatida ham yuqori TTXI oqimi kuzatilgan.

Ekspart salohiyati yuqori bo‘lgan — mashinasozlik, elektrotexnika, metallurgiya, kimyo va farmatsevtika tarmoqlarida asosiy kapitalni shakllantirish uchun TTXIning darajasini oshirishda hamda “O‘zbekiston – 2030” strategiyasida 2030-yilga qadar mamlakat iqtisodiyotiga 110 milliard AQSh dollar xorijiy investitsiyalar jalb qilish vazifasini bajarishda ushbu sohalarda qulay investitsiya muhiti yaratish, xususan raqobat muhiti, xususiy mulk daxlsizligi, moliya bozorlari, ishlab chiqarish va bozor infratuzilmasini yaxshilash muhim hisoblanadi.

Shuningdek, TTXIning yuqori texnologiyali va inson kapitaliga faol yo‘naltirish mamlakatda yuqori darajadagi inklyuziv o‘sishga erishish va kambag‘allik darajasini qisqartirish kabi maqsadlarga erishishda muhim ahamiyat kasb etadi.



Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Toshkent viloyati statistika agentligi rasmiy sayti
<https://www.toshvilstat.uz/uz/matbuot-markazi/qo-mitayangiliklar/14986-nashr-1488>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi ““O'zbekiston — 2030” strategiyasi to'g'risida”gi PF-158-sonli farmoni,
<https://lex.uz/ru/docs/-6600413>
3. Knack, S., & Keefer, P. (1995). Institutions and economic performance: Cross-country tests using alternative institutional measures. *Economics & Politics*, 7(3), 207-227.
4. Daniel Kaufmann and Aart Kraay (2023). *Worldwide Governance Indicators, 2023 Update* (www.govindicators.org), Accessed on 10/19/2023.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligirasmiy sayti - <https://stat.uz/uz/>